https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Alisher Navoiy nomidagi
O‘zbek tili va adabiyoti universiteti
Tarjima nazariyasi va amaliy kafedrasi
sotsiologiya yo‘nalish talabasi
Qo‘qonboyeva G. S.
gulnozaqoqonboyeva@gmail.com

ZAMON BILAN HAM NAFAS O‘ZBEK MILLIY MADANIY QADRIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada nomoddiy madaniy merosimiz bo‘lmish do‘ppini kelib chiqishi tarixi va har bir viloyatlarimiz kesimida ishlangan maftunkor bezak naqshlari haqida yoritilgan. Prezidentimizning hunarmandchilikka oid farmonlari ham keltirib o‘tilgan. Hozirgi kundagi keng tarqalayotgan submadaniyatlar ya’ni kvantropl niqoblaridan ko‘ra milliy do‘ppilarimizni targ‘ib qilish haqida keng yoritilgan va oldingi davr do‘ppilari bilan hozirgi zamonaviy do‘ppilar solishtirilgan. Biz do‘ppiga oddiy bir bosh kiyim sifatida qaraymiz aslida undagi bezak haqiqatlari va rivoyatlari kengroq yoritilgan va hozirgi kunda do‘ppini qanday qilib mashhur brend sifatida tanitish lozimligi haqida aytilgan.

Kalit so‘zlar: *Do‘ppi, nomoddiy meros, brend va kvantropl niqoblari*

УЗБЕКСКИЕ НАЦИОНАЛЬНЫЕ КУЛЬТУРНЫЕ ЦЕННОСТИ ДЫШАТ СО ВРЕМЕНЕМ

Назван в честь Алишера Навои.
Университет узбекского языка и литературы
Кафедра теории и практики перевода
Студент социологии
Коканбаева Г. С.
gulnozaqoqonboyeva@gmail.com

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Абстрактный. В этой статье рассказывается об истории происхождения доппини, нашем нематериальном культурном наследии и увлекательных декоративных узорах, созданных в каждом из наших регионов. Были также упомянуты указы президента о ремеслах. Широко освещается пропаганда наших национальных головных уборов, а не широко распространенных сегодня субкультур, то есть квантропных масок, а головные уборы прошлого сравниваются с современными головными уборами сегодняшнего дня. Мы смотрим на шляпу как на простой головной убор, на самом деле более широко освещены правда и легенды о ее украшении, и о том, как сегодня продвигать шляпу как популярный бренд.

Ключевые слова: *Шляпа, нематериальное наследие, фирменные и квантропные маски.*

UZBEK NATIONAL CULTURAL VALUES BREATHE WITH THE TIMES

Named after Alisher Navoi
University of Uzbek Language and Literature
Department of theory and practice of translation
Sociology student
Kokanbayeva G. S.
gulnozaqoqonboyeva@gmail.com

Annotation. This article covers the history of the origin of the doppini, our intangible cultural heritage, and the fascinating decorative patterns made in each of our regions. The President's decrees on handicrafts were also cited. The promotion of our national hats rather than today's widespread subcultures, i.e. quantropl masks, is widely covered, and the hats of the past are compared to the modern hats of today. We look at the hat as a simple headwear, in fact, the truths and legends of its decoration are more widely covered, and how to promote the hat as a popular brand today.

Keywords*: Hat, intangible heritage, brand and quantropl masks*

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Kirish. Dunyoni rivojlangan mamlakatlarida yashar ekanbiz. Hozirda butun jamiyatda sun'iy intelektga va texnologiyaga asoslangan ishlab chiqarish mahsulotlari bozorlarni to‘ldirgan, lekin insoniyat inson qo‘li bilan yaratilgan mahsulotlarni, tovarlarni, hanuzgacha katta qiziqish va hayajon bilan qabul qilmoqda. Biroq bugungi kunda hunarmandchilik sohasini biladigan yoshlarimiz juda ham kam. Nafaqat hunarmandchilik balki nomoddiy madaniy merosimiz haqida ham ko‘plab yoshlar ma'lumotga ega emas. Nomoddiy meros bu asosan, xalqning an'analari, urf-odatlari, til, musiqa, raqs, hikoya qilish san'ati va boshqa madaniy ifodalarini o'z ichiga oladi. U moddiy ob'ektlardan farqli ravishda, insonlarning hissiyotlari, fikrlari va ijodiy faoliyatlari orqali shakllanadi. Nomoddiy meros, xalqning ruhiyatini, qadriyatlarini va hayot tarzini ifodalaydi. Shunday ekan hozirgi kunda kamayib bora yotgan sohalardan biri do‘ppido‘zlik haqida aytmoqchiman ya'ni ota-bobolarimiz davrida bosh kiyimi do‘ppi yoki qalpog‘idan qaysi millatga hosligi va qaysi yoshda ekanini bilib olishgan. “Do‘st-boshga, dushman oyoqqa qaraydi”, degan maqolga ko'ra biz ham o‘z milliy do‘ppimiz haqidagi tarixni bilib olsak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Qadim davrlardan bosh kiyimiga qarab, o‘zbeklarning etnik va lokal guruhlari farq qilingan. Erkaklar boshiga, asosan, turli xildagi do‘ppi (to‘ppi, taxyo) kiyganlar, ayollar esa, ko‘pincha, rang-barang ro‘mol yopingan. Do‘ppining, dastavval, tagi va gardishi (kizagi) ni ayrim holda tikib kashtalaganlar va mayda qavib qo‘shib tikkanlar. Odatda, do‘ppi nozik gulli, qadab tikiladi, ayrim ayollarning do‘ppisiga mayda munchoq, marjonlar, xorazmliklarda jiyak va popuk taqiladi. Ilgari konus shaklidagi do‘ppilar Toshkent, Samarqand, Shahrisabzda tarqalgan, bugungi kunda Shahrisabzda saqlangan. Ayniqsa, “bodom” yoki “qalampir” naqshli oq ipak ip bilan tagi qora matoga kashtalangan Chust do‘ppi nafaqat vodiyda, balki undan tashqarida ham mashhur. Tagi kashta qilinib, rangbarang to‘pbarggul shaklidagi Xo‘jand – O‘ratepa do‘ppilari butun O‘zbekistonga tarqalgan. Erkaklar kiyadigan uchli qalpoq – kuloh to‘rt bo‘lak uchburchak matodan, gardishsiz tikilgan. Konus shaklidagi baland kulohni ilgari

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

qalandarlar kiyishgan, tuxum shaklidagi chakkasi biroz yumaloq kulohni Buxoroda yoshi ulug‘ qariyalar qishda kiyganlar. Bunday bosh kiyimi o‘rta asr miniatyuralarida ko‘p uchraydi. Asli kulohni ruhoniylar va dindor kishilar ko‘proq kiyganlar.[1]

O‘zbekistonda do‘ppi nafaqat kiyimning bir jihati, balki xalq madaniyatining tarkibiy qismidir. Bugungi kunda qishloq va shaharlik insonlarning boshida do‘ppini faqat ayrim holatlarda: oilaviy tantanalar, dafn marosimlari yoki bayramlarda ko‘rish mumkin. Ammo bundan bir necha o‘n yillar oldin do‘ppi O‘rta Osiyoda asosiy bosh kiyim turi bo‘lgan. Uni erkaklar va ayollar, bolalar va qariyalar kiyardi[2][2].

Aslida do‘ppilar qachon va qayerda paydo bo‘lganuning tarixi qayerga borib taqalishi haqida etnograf olim Л.Будагов Ценкерга (Сенги-Лахи лугати) ga tayangan xolda bu so‘z turcha ‘‘tube’’, ‘‘tupe’’- (cho‘qqi, tepalik) so‘zlaridan kelib chiqqan, deb yozadi va boshning tepasiga kiyiladigan shapka ma’nosida ikki variantini‘‘tubetay’’ va ‘‘tuppi’’ni keltiradi deb takidlagan[3][3].

Masalan Panjikent tasviriy san’atida ham bir nechta bosh kiyimlari saqlanib qolgan. Movarounnahr (XV-XVII asrlar) va Samarqand (XVI asrning birinchi yarmi) sharq miniatyuralarida ayollarning turli tuman bosh kiyimlari uchraydi. Qiz bolalar va yosh ayollar gardishli, qavilgan dumaloq baxmal do‘pilarni kiyishgan[4][4].

Muhokama va natijalar: Do‘ppilar har bir mintaqada o‘ziga xos farqli jihatlarga ega bo‘lgan. Shartli ravishda do‘ppilar bir nechta guruhlarga bo‘linadi. Bular: Toshkent, Buxoro, Samarqand, Farg‘ona, Xorazm-Qoraqalpoq va Qashqadaryo-Surxondaryo do‘ppilaridir. Shuningdek, do‘ppilar bayrambop, diniy va kundalik turmushbop bo‘ladi. Ushbu milliy bosh kiyimi yumshoq yoki qattiq matodan tikilib, kashta yoki munchoqlar bilan bezatiladi, unga yumaloq yoki kvadrat shakl

[1] D. Rahmatullayeva Kostum va moda tarixi«Niso poligraf»-Toshkent. 2017y.
[2] https://uzbekistan.travel/uz/o/ozbek-doppisi-sirlari
[3] Sodiqova N,G‘aybullayeva Y.‘‘O‘zbek milliy bosh kiyimlari XIX-XX asrlar’’.Toshkent: Sharq.2014.
[4] G‘aybullayeva.Y. Do‘pillar tarixidan. Toshkent: Moziydan sado. 2010. 2-3.bet

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

beriladi. Biroq, bugungi kunda har kim ham do‘ppi naqshida yashiringan ma’nolar haqida o‘ylamaydi. Axir har bitta bukilish, rasm, chiziq o‘zining chuqur ma’nosi va siriga ega.

Hozirgacha xalq orasida do‘ppilar haqidagi afsonalar va rivoyatlar saqlab kelinadi. Unga ko‘ra, erkaklar do‘ppisining yuqori qismidagi to‘rtta gul odamning sog‘lig‘ini to'rt tomondan himoya qiladi, do‘ppi chetidagi o‘n oltita gul esa katta va ahil oila bo‘lish (o‘n oltita farzand ko‘rish) tilagini bildiradi. Ushbu do‘ppilar odmi, kamtar va shu bilan birga juda bezakli ko‘rinishga ega. Ular to‘rtta qalampir boshchalari ko‘rinishidagi oq naqshning qora fon bilan keskin birikuvi bilan ajralib turadi. Qorong‘i fonga oq ipak bilan tikilgan gullar inson qalbi va yuragi pokligining ifodasi bo‘lib xizmat qiladi[5][5]

Chust do‘ppisi to‘q yashil shoyi yoki satindan 4 karjli qilib tayyorlanadi: tepasining har bir karjida qalampirnusxa yoki bodom shakli, kizagining har bir karjida 4 tadan mehrob (yarim doira) shaklida kashta bilan sidirg‘a qoplab oq ipda (yoki ipakda) tikiladi. Tayyor do‘ppining tepasi kizagidan murabba shaklida bo‘rtib chiqadi (boshqa do‘ppilarning tepasi yarim doira shaklida bo‘ladi).

Marg‘ilon do‘ppisi shakli ko‘p jihatdan chuyet do‘ppisiga o‘xshash bo‘lgan gullarining (nisbatan ingichka va uzun qalampir shaklining) sidirg‘a qoplanmasligi bilan farqlanadi.

Buxoro do‘ppisiga rang-barang ipak iplarda yo‘rma usulida kashta tikib bezatilgan jiyak tutiladi. Buxoro zardo‘zlarining zardo‘zi-guldo‘zi va zardo‘zi-zamindo‘zi (“Yulduz”, “Tovus”va boshqa) do‘ppilari badiiy jiqatdan yuqori baholanadi.

Shahrisabzning tepa va kizagi yaxlit (ipak va ipdan) to‘qilgan gilam do‘ppisi ham mashhur. Samarqand (Urgut) va Surxondaryoning (Boysunning) dumaloq, shaklli piltado‘zi do‘ppisining naqshi sodda, gullari markazga tomon yo‘nalgan, qaviq choklari esa qovurg‘ali yuzani hosil qiladi.

[5] https://uzbekistan.travel/uz/o/ozbek-doppisi-sirlari/

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Toshkent va Farg‘ona vodiysida keng tarqalgan iroqi nusxa do‘ppining naqsh mujassamoti rang-barang gulli novdalar, ular orasidagi yashil, ko‘k tusli qushchalar (bulbullar) shaklidan iborat. Toshkentning iroqi do‘ppisida oq zaminga atirgullar to‘q va och qizil ipaklarda (ba’zan “Ra’no”, “Guli”, “Farg‘ona tong otguncha”va boshqa) yozuvlar qo‘shib tikiladi.

Iroqi do‘ppi Shahrisabzda keng urf bo‘lgan, keyinchalik boshqa joylarga tarqalib, har bir mahalliy joyning o‘ziga xos bezak usulida yaratila boshlandi. Do‘ppining bu turida kashta iplari sug‘irilib to‘r holiga keltirilgan matogs (surpga) rangli ipak yoki ingichka tolali paxta ipi bilan iroqi chokda (terma va bosma usulida) tikiladi (nomi shundan). Iroqi do‘ppining eng yaxshi namunalari Shahrisabz va Kitob do‘ppido‘zlari tomonidan tayyorlanadi[6][6]

Ayollar do‘ppilarini bezashda asosan gullar, mevalar va qushlardan foydalaniladi. Gul naqshlari orasida keng tarqalgani atirgul, gulsapsar, chinnigul, lola, gultojixo‘roz, olma gullari va boshqalar, mevalar orasida esa anor, olcha va gilos, bodom va qalampir tasvirlari va boshqalar hisoblanadi. Gullar ko‘pincha yuqorida va yon tomonda tasvirlanadi. Gullar ichidagi jihatlar, ayniqsa, ehtiyotkorlik bilan ishlanadi. Qushlar ham bezakning asosiy naqshini tashkil qilishi mumkin. Asosan, bu tustovuq, xo‘roz, bulbulning tasvirlaridir. Hunarmand ayollarning go‘zallikka, mukammallikka intilishi ularning mehnatini hunarmandchilikdan eng yuqori san’at darajasigacha ko‘taradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yilda 30 dekabrdagi PQ-77-sonli “hunarmandchilik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ushbu sohaga e’tiborni yanada kuchaytirdi va sohadagi yo‘lni belgilab berdi. Ushbu qarorda sohadagi kelgusi ishlar uchun yo‘l haritasi, o'quv dasturlari va bozorga kirish tashabbuslari ko'zda tutilgan. Maqsad esa an'anaviy hunarmandchilikni saqlab qolish va shu bilan birga, ushbu sohada innovatsiyalarni rag'batlantirishdir[7][7] Biz yoshlarga

[6] https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Do%CA%BBppi
[7] https://lex.uz/docs/-5807559

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

berila yotgan shunday imkoniyatlardan unumli foydalangan holda do‘ppido‘zlik va hunarmandchilik sohasini rivojlantirishimiz kerak.

Do‘ppini brend sifatida rivojlantirish uchun quyidagi qadamlarni ko‘rib chiqish lozim:

- Bozorni o‘rganish va raqobatchilarni tahlil qilish masalan mavjud do‘ppi brendlarini va ularning strategiyalarini o‘rganish va kimlar do‘ppi sotib olishi mumkinligini va ularning ehtiyojlarini tushunish.
- O‘ziga xos va esda qoladigan brend nomi va logotip yaratgan holda do‘ppining tarixiy va madaniy ahamiyatini ta’kidlovchi hikoya yaratish lozim.
- Zamonaviy dizaynlar orqali an’anaviy do‘ppilarni zamonaviy uslubda takomillashtirish va yuqori sifatli materiallardan foydalangan holda ishlab chiqarish jarayonini yaxshilash.
- O‘z veb-sayti yoki e-tijorat platformalarida do‘ppilarni sotish. Do‘ppilarni sotish uchun mahalliy do‘konlar bilan shartnomalar tuzish.
- Mijozlarni tinglash va fikr-mulohazalarni to‘plash ularga asoslangan takliflarni bera olish. Mijozlar uchun chegirmalar yoki bonuslar taqdim etish lozim.
- Do‘ppi madaniyatini targ‘ib qiluvchi tadbirlar o‘tkazish. Do‘ppilarni namoyish qiluvchi moda ko‘rgazmalarida ishtirok etish.
- Savdo va marketing kampaniyalarining samaradorligini baholash. Olingan natijalar asosida strategiyalarni yangilash va rivojlantirish.

Ushbu qadamlar yordamida do‘ppini muvaffaqiyatli brend sifatida rivojlantirish mumkin. Har bir qadamda ijodkorlik va yangi yondashuvlarni qo‘llash muhim ahamiyatga ega.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish keraki, men bunday fikrlarim bilan hamma do‘ppida yursin va kiyishni majbur etish lozim demoqchimastman. Shunchakiy milliylik urf odatlar va qadriyatlarimizni ko‘z qorachig‘idek asragan holda kelajak avlodga yaxshi yetkazishdir. Qayerdandir kirib kelayotgan submadaniyatlarga ergashib o‘z milliyligini va insoniy his tuyg‘ularini ham yo‘qota yotgan

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

yoshlarimiz hozirda ko‘paydi. Masalan kvantropil odamlar ya’ni hayvonlarga taqlid ostida har hil hayvon maskalarini va kiyimlarini kiyib olgan holda ularga hos harakatlar qilayotganligi bizni miliyligimizni yo‘qolishiga sabab bo‘lmoqda. Bunday turdagi maskalarni yoshlarimiz qayerdan harid qilmoqda deb o‘ylaysiz allbata ijtimoiy tarmoqlarda berilayotgan reklamalar asosida qiziqib sotib olmoqda. Lekin buning salbiy tomonlari haqida hech ham o‘ylamayapti. Chunki, bu maskalarni ommaga mashhur shaxslar rekama qilayotganidir. Bunday yurish va kiyinishdan ko‘ra o‘z milliyli qadriyatlarimizni va ota-bobolarimizdan kelayotgan do‘ppini kiyib yurgan ming marta avzaldir. Do‘ppi kiyib yugan odamlarni ko’rsa hamma boshqacha ko‘z bilan qarashadi faqatgina do‘ppini to‘y va dafn marosimlarida emas balki, kiyinish madaniyatimizga moslab ham kiyib yursak mubolag‘a bo‘lmaydi. Aslida reklama inson psixalogiyasiga juda ham tez yetib boradigan narsadir ayniqsa endi o‘sib kelayotgan yoshlar uchun bu katta ta’sir o‘tkazadi. Shunday ekan biz ham o‘z milliy do‘ppilarimiz reklamasini eng ko‘p odamlar foydalanadigan ijtimoiy tarmoqalarga joylasak mana masalan:



✓ Instagram, TikTok kabi platformalarda do‘ppi haqida kontent yaratib yangi trendlar va uslublarni namoyish qilsak bizni reklamamiz tez ommalashadi va yetkazib berish hizmatini ham bepul qilish lozim.

✓ Do‘ppining an’anaviy shakllarini zamonaviy modaga mos holda yangilab ranglar, materiallar va naqsh dizaynlari ustida ishlasak va dreskod uslubiga ham moslashtirsak yanada brendimiz yangilanadi.

✓ Do‘ppini sport jamoalari yoki faoliyatlar uchun ham brend sifatida ishlab chiqish kerak.lozim.

✓ Do‘ppilarni namoyish qiluvchi moda ko‘rgazmalarni yaratib mijozlar uchun chegirmalar yoki bonuslar taqdim etishimiz lozim.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026





Chust. Erkaklar do‘ppisi.



Qo‘qon. Erkaklar do‘ppisi



Shaxrizabz. Erkaklar do‘ppisi



Koson. Erkaklar do‘ppisi

zamonaviy modaga mos bosh kiyim an’anaviy shakllaridagi bosh kiyim

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. D. Rahmatullayeva Kostum va moda tarixi«Niso poligraf»-Toshkent. 2017y.
2. https://uzbekistan.travel/uz/o/ozbek-doppisi-sirlari
3. Sodiqova N,G‘aybullayeva Y.‘‘O‘zbek milliy bosh kiyimlari XIX-XX asrlar’’.Toshkent: Sharq.2014.
4. G‘aybullayeva.Y. Do‘pillar tarixidan. Toshkent: Moziydan sado. 2010. 2-3.bet
5. https://uzbekistan.travel/uz/o/ozbek-doppisi-sirlari/
6. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Do%CA%BBppi
7. https://lex.uz/docs/-5807559